


O'ZBEK BADIY ADABIYOTIDA TASAVVUFİY RAMZLAR



Islamov Fazliddin Isomiddinovich

Chirchiq davlat pedagogika

universteti Gumanitar fanlar fakulteti

o'zbek tili va adabiyoti yo'naliishi 4-bosqich talabasi

islamovfazliddin7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek mumtoz adabiyoti tasavvufiy istilohlar haqida mulohazalar keltirilgan. Ramzlarning she'riyatda, mumtoz tasavvuf adabiyotida bajaradigan badiiy vazifalariga to'xtalingan. Turli o'rnlarda tasavvuf istilohlarning umumiy-so'fiyona ma'nolari sharhlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: o'zbek mumtoz adabiyoti, tasavvuffalsafasi, "Soch" ramzi, "Ko'z" ramzi, badiiy talqin.

Abstract. In this article, the classic Uzbek literature is mystical revolutions comments are given. The artistic functions of symbols in poetry and classic Sufism literature are discussed. The general Sufi meanings of Sufism terms are explained in different places.

Key words: Uzbek classical literature, Sufism philosophy, "Hair" symbol, "Eye" symbol, artistic interpretation.

Абстрактный. В этой статье классическая узбекская литература – это мистические революции, комментарии даны. Обсуждаются художественные функции символов в поэзии и классической суфийской литературе. Общие суфийские значения терминов суфизма объясняются в разных местах.

Ключевые слова: классическая узбекская литература, философия суфизма, символ «Волос», символ «Глаз», художественная интерпретация.

KIRISH

Badiiy adabiyotni ramzlarsiz to‘laqonli tushunish imkonsiz hisoblanadi. O‘zbek mumtoz adabiyotidagi maxsus qo‘llanadigan ramzlar alohida yondashuvni talab etadi. Haqiqatatan olib qaralganda, “Sharq xalqlari tafakkuri tarixida chuqur ildiz otgan tasavvuf ta’limotini yaxshi bilmasdan, Alisher Navoiy dunyoqarashi va adabiy merosini barcha murakkabliklari, falsafiy teranligi bilan to‘liq holda to‘g‘ri, haqqoni yoritib berish mushkul”. O‘zbek mumtoz adabiyoti, xususan, Alisher Navoiy g‘azaliyoti ramzlarga juda boy. “Simvolizm muayyan maqsad yo‘lida g‘oyani anglatishga mo‘ljallangan usul. U bir lahzada abadiyatni yodga solguvchi vosita” . Tasavvufiy she’riyatda ma’shuqning yuzi – Olloh yaratgan narsalar ichida eng mukammal ko‘zgu bo‘lib, Olloh jamolini yuz komillik ifodalanadi. Yuzning hidoyat nurlariga qiyos qilinishi so‘fiyona adabiyotda keng tarqagan tashbeh-istiora bo‘lib, Navoiyning quyidagi baytida ham ma’shuqaning zarfishon chehrasi hidoyat shamiga o‘xshatilgan:

Sochingda zarfishon chehrang zalolat shomida har yon

Tajalliy mash’alidin yorug ‘on shami hidoyatduri. [1.Navoiy, ”G‘aroyibus-sig ‘ar”, 180-b.]

Sochlaring gumrohlik kechasidir, – deydi ulug‘ shoir baytda, – nurafshon chehrang esa tajalliy mash’alidan nur olib, oshiqlar qorong‘ida adashib qolmasligi uchun har yonga yoqib qo‘yilgan hidoyat shamidir. Navoiyning boshqa bir baytida ham yorning sochi zulmatga, yuzi esa shamga tashbeh qilinib, mahbub yuzi hidoyat nurlari sifatida talqin qilingan:

Zulfin ochganda zanax chohiga tushgay ming ko ‘ngul,

Qo‘ymasa ul choh uza ruxsori shamin yorutib. (2. Navoiy, “*Badoyeul-bidoya*”, 77-b.) (Mazmuni: Agar yor yuzining shamini yoritib qo‘ymaganda edi, u zulflarini yoyganda, minglab ko‘ngillar yor kuldirgichining zindoniga tushib ketgan bo‘lar edi). Baytda tilga olingan zunnor musulmon mamlakatlarida g’ayridinlar musulmonlardan ajralib turish uchun bellariga bog’lab yuradigan maxsus ip. She’riyatda esa yor sochining istioraviy ifodasi. Tamsil san’atining noyob namunasi bo’lgan mazkur baytning birinchi misrasida aytildiği, yor zulfining zunnori bilan yashirgan yuzlarini ochdi. Ikkinci misrada shoir bu holatni izohlab deydiki, axir kufr zulmatiga iymon davo bo’ladi-da! Tamsil she’riy san’atining qonuniyatlaridan kelib chiqiladigan bo’lsa, soch (zulf) – kufr, yuz (uzor) esa – iymon. Quyidagi baytda oshiq ko’nglining parishon holati ifodalangan. Baytda aytlishicha, mosivalloh – Ollohdan o’zga narsalarning havasi ko’ngildagi ilohiy husn jilvasini xiralashtirib qo’yan:

Yuziga tushti zulf, aylang nazzora,

Ki bo‘ldi kufr iymon birla mamzuj. (4. Navoiy, ”*G‘aroyibus-sig‘ar*”, 124-bet)

Ya’ni soch (zulmatga qiyos) yuz(nur)ni to‘smoqda, botiniy ma’noda – kufrni iymon bilan bartaraf etmoq lozim. Soch tasviri Alisher Navoiyning hamma she’riy devonlarida uchraydi. “Favoyidul-kibar” devonining 96, 98 va 100-g‘azallarida ham “Soch” tashbehi talqinga tortilgan [7. Navoiy, “Favoyidul-kibar”, 72-75-betlar]. Yuz o’tmish adabiyotida mazhar sifatida suv va ko’zguga, tajalliy sifatida esa zarvaraq, sham, subh, kunduz, oy, quyosh, iymon va o’t singari nurafshon va ezbilik, ilohiy lutf bilan bog’liq ijobjiy tushunchalarni ifodalovchi narsalarga tashbeh qilingan. Soch esa ana shu ilohiy go‘zallikni to‘sguvchi, yashiruvchi uzb bo‘lib gavdalanadi. Sochning qoraligi esa – ishq yo‘li mashaqqatlariga ishora, soch jingalaklari esa ilohiy ishq yo‘lining mushkulotlariga, sinovlariga ishoradek. So‘z qudratli kuch. So‘zdan qalqon ham, qilich ham bunyod etish mumkin. Albatta, so‘z o‘z egasiga tushsa, o‘z o‘rnini topa olsa. So‘z insonga qalbidagini izhor etish, ayni damda ko‘nglidagini yashirish imkonini ham beradi. Shu sababli ham so‘zda sehr, she’rda hikmat bor, deyilgan. Tasavvufiy adabiyotda uchraydigan timsol-istilohlar lug‘atlarida ko‘z komil inson

tim soli sifatida tushuntiriladi. Xuddi komillikka erishgan inson o‘zidan kechib, boshqacha aytganda, o‘zidagi barcha illatlarni bartaraf etib, faqat Yaratganni ko‘rgani, uni o‘ylagani kabi, ko‘z ham o‘zini ko‘rmaydi, o‘zgalarni ko‘radi.

Tasavvuf ta’limotida ko‘ngil ulug‘lanadi. Sababi, u Alloh jilvagohidir. Shu ma’noda ijodkorlar ko‘ngil timsoliga murojaat qilish orqali insonning ulug‘ligiga, uni Allohnинг yeradagi xalifasi ekanligiga ishora qiladir. Ishqda hamma narsa go‘zaldir, Ishqda hamma narsa jozibador. Hatto qotillik ham2 Ishq - tasavvufiy atamalardan biri. Ishq - nafsga qarshi qurol, ishq bo‘lmasa, insonning eng yaxshi fazilatlari ro‘yobga chiqmaydi. Shu fikrlardan kelib chiqib, yuqoridagi misralarni tasavvufiy ma’noda tahlil qilganda, ilohiy ishq ko‘ngidan joy olgan oshiq uchun undan go‘zalroq, undan jozibaliroq, undan sehrliroq hech qanday vosita yo‘qdir. Ishq - bu inson ko‘nglini poklovchi vosita. Ioda, mehr, ilm, ibodat, oqillik, xokisorlik, sabr, qanoat, g`ayrat, kamtarinlik,adolat, saxiylik, halimlik, mardlik, hayo, pokizalik, shafqat, umuman, inson qalbini, ruhini poklovchi, uni Allohga yaqinlashtiruvch barcha ezguliklar tushunilar ekan, ulardan “go‘zal”, “jozibador” tuyg‘uning o‘zi yo‘q. Shoira inson ko‘nglidagi nafsoniy istaklarni o‘ldirishni “qotillik” deb ta’riflaydi. Bu “qotillik” inson vujudidagi noqis xislatlarni tarbiyalab, komillik sari yetaklashdir. Shuning uchun shoira bunday qotillikni go‘zal deya ta’kidlaydi4

XULOSA

Muxtasar qilib aytganda, yuz o’tmish adabiyotida mazhar sifatida suv va ko‘zguga, tajalliy sifatida esa zarvaraq, sham, subh, kunduz, oy, quyosh, iymon va o’t singari nurafshon va ezgulik, ilohiy lutf bilan bog’liq ijobiy tushunchalarni ifodalovchi narsalarga tashbeh qilingan. Soch esa ana shu ilohiy go‘zallikni to‘suvchi, yashiruvchi vosita bo‘lib gavdalanadi. Sochning qoraligi esa – ishq yo‘li mashaqqatlariga ishora, soch jingalaklari esa ilohiy ishq yo‘lining mushkulotlariga, sinovlariga ishora hisoblanadi. Tasavvufdagagi istilohlar mazmunini anglamay turib, komilikka erishib bo’lmaydi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Бертелс Е. Э. “Сўфизм ва тасаввуф адабиёти”. Рус тилидан Ибодулла Мирзаев таржимаси. Т.: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. – 2005. – 104 б.
2. Нажмиддин Комилов. Тасаввуф. Т.: “O‘zbekiston”, 2009. – 448 б.
3. Р. Уэллек, О. Уоррен. Теория литературы. Перевод с английского. М.: “Прогресс”. 1978.- 326 с.
4. Алишер Навоий. “Фаройибус-сиғар”. ЎзССР давлат бадиий адабиёт нашриёти, Т.-1963. – 496 б.
5. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 1 том. “Бадойиъ ул-бидоя”. Т.:”Фан”, - 1987. – 724 б.
6. Алишер Навоий. Муқаммал асарлар тўплами. 5 том. “Бадойиъ ул-васат”. Т.:”Фан”, - 1990. – 544 б.